

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat chiqindilari asosida olingan kompozitsion qo‘shimchalar yordamida Orolbo‘yi tuproqlarining unumdorligini oshirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Orolbo‘yi mintaqasidagi sho‘rlangan tuproqlarning agrofizik xususiyatlarini yaxshilash va unumdorligini oshirish uchun “Uz-Kor Gas Chemical” MChJ QK “BIOSHLAM” sanoat oqova suvlari chiqindilari va sintez qilingan polimer elektrolitlari asosida kompozitsion materialni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi; - ishlab chiqarish chiqindilarini utilizatsiya qilish bilan birga, samarali strukturantlarni topish, atrof-muhitga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan yashil kimyo muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladi; - laboratoriya va dala sharoitlarida (Orol dengizi tuprog‘i) don mahsulotlarini kompostda yetishtirish bo‘yicha tajribalar o‘tkaziladi (tarkibida kamida 60 foiz organik moddalar bo‘lishi inobatga olinadi); - suvni tozalash chiqindilarini bio-shlam shaklida ishlab chiqarish uchun joylashtirish, ushbu maqsad uchun ajratilgan maydonlarning o‘tkir taqchilligini ta‘minlaydi, qishloq xo‘jaligidagi chiqindilarni chiqarib tashlashda arzon, eski va kamroq suvsizlantiruvchi reagentlarni qo‘llash imkoniyatlari o‘rganiladi va maqbul texnologiyalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlar hamda Orolboyi xalqaro innovatsiya markazida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Orolboyi xalqaro innovatsiya markazining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.